

---

# HALOK BO'LGAN HARBIY XIZMATCHILAR OILA A'ZOLARI IJTIMOY QO'LLAB-QUVVATLANADI



## Halok bo'lgan harbiy xizmatchilar oila a'zolari ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi

“Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va xodimlar oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident farmoni qabul qilindi.

Farmonga ko'ra, 2023 yil 1 apreldan:

halok bo'lgan harbiy xizmatchi (xodim) oila a'zolariga biryo'la beriladigan nafaqa marhumning oxirgi egallagan lavozimi bo'yicha maoshi va harbiy (maxsus) unvoni maoshi yig'indisining 150 baravari miqdorida belgilanadi;

harbiy xizmatchilarning (xodimlarning) davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi doirasida harbiy xizmatchi (xodim) halok bo'lganda to'lanadigan sug'urta summasi BHMning 200 baravari miqdorida belgilanadi.

2023 yil 1 maydan:

oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi pensiyani hisoblab chiqish uchun olinadigan pul ta'minotining (ish haqining) 50 foizi miqdorida belgilanadi;

oila a'zolari (ota-onasi, turmush o'rtog'i, 23 yoshga to'lmagan farzandlari) daromadlar qaysi oyda olingan bo'lsa, o'sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 3 baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod etiladi;

belgilangan tartibda turarjoyga muhtoj deb tan olingan taqdirda, turarjoy bilan birinchi navbatdagi tartibda ta'minlanadi.

2023 yil 1 iyundan:

halok bo'lgan harbiy xizmatchining (xodimning) farzandlari maktabgacha ta'lim muassasalarida bepul tarbiyalanishi, shuningdek, professional va OTMda davlat granti asosida qo'shimcha kvotalar bo'yicha ta'lim olishi ta'minlanadi;

halok bo'lgan harbiy xizmatchining (xodimning) ota-onalariga yiliga 2 marta temir yo'l va havo yo'lovchilar transportidan bepul foydalanish huquqi beriladi.

2023 yil 1 dekabrgacha quyidagi qonun loyihalari ishlab chiqiladi:

“Faxriylar to'g'risida”gi;

“Harbiy xizmatchilar maqomi va ularni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida”gi;

“Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida”gi.

## M. Qodiraliyev - Rishton tuman adliya bo'limi boshlig'i

### [Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-31 19:04:15